



QUR'ONI KARIMNING SABABI NUZULIGA DOIR YOZILGAN ASARLAR: TARIXIY O'RNI VA TA'SIRI

Yaxshilikov Abdulaziz Mo'minovich

Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi

Annotatsiya: Mazkur maqola Qur'oni Karimning sababi nuzuliga doir yozilgan asarlar va ularning ilmiy ahamiyatini tahlil qiladi. Sababi nuzul rivoyatlari Qur'onning sura va oyatlarini to'g'ri tushunish uchun zaruriy manba bo'lib, tarixiy jihatdan muhim asarlar yozilgan. Ushbu maqolada, VII-VIII asrlarda boshlanib, o'rta asrlarda rivojlangan sababi nuzulga bag'ishlangan asarlar, masalan, Maymun ibn Mehron, Ali ibn Madiniy, Abulhasan Ali ibn Ahmad Vohidiyning asarlari hamda Ibn Hajar Asqaloniyning "al-Ujob fi bayon al-asbob" kabi kitoblari tahlil qilinadi. Shuningdek, sababi nuzulga oid ilmiy merosning bugungi kunga qadar yetib kelgan asarlari va ularning tafsiri sohasiga qo'shgan hissasi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Qur'on, sababi nuzul, rivoyatlar, tafsir, ilmiy asarlar, Abulhasan Ali ibn Ahmad Vohidiy, Ibn Hajar Asqaloni, o'rta asrlar, hadis, tafsir ilmlari.

Qur'oni karimning ko'plab sura va oyatlarini anglash uchun ularning nozil bo'lish sabablarini bilish zarur. Bunda asosan sababi nuzul rivoyatlari yordamchi bo'ladi. Mazkur turdagi rivoyatlarga bag'ishlab yozilgan alohida asarlar mavjud bo'lib, ular VIII asrdanoq yozila boshlangan. Shunday asarlardan biri Maymun ibn Mehron (117/735-yili v.e.) tomonidan yozilgan "Tafsil li-asbob at-tanzil" nomli asar bo'lib, uning nusxalari bugungi kungacha yetib kelmagan. Ushbu asar nomi Ibn Hajar Asqaloniyning asarida tilga olingan. Unga ko'ra, shomlik olim Abdulhakim Unays mazkur asar mavjudligini aytib, uning qo'lyozmasini ko'rganini ta'kidlagan⁹⁶.

Ali ibn Madiniy (161/778–234/849) "Asbob an-nuzul" asarini yozgan⁹⁷. Lekin ushbu asarning bizgacha yetib kelgan nusxasi aniqlanmagan. Muallifning jarh va ta'dil, ilal al-hadis masalasida peshqadamlardan biri bo'lgani hisobga olinsa, u kitobiga faqat sahih va hasan darajadagi rivoyatlarni kiritgan, deb taxmin qilish mumkin. Imom Buxoriyning "Hech kimning oldida o'zimni Ali ibn Madiniyning oldidagi kabi arzimasa sanamaganman"⁹⁸ degan so'zi ham uning hadis bobida qanchalik darajada yetuk bo'lganiga dalildir.

Qozi Abdurahmon ibn Muhammad ibn Iso (402/1012-yili v.e.) ham sababi nuzulga doir alohida asar yozgan bo'lib⁹⁹, Ibn Bashkuval (494/1101–578/1183) uning nomini "al-Qisos va-l-asbob allatiy nazala min ajliha al-Qur'on" shaklida zikr qilgan¹⁰⁰. Ibn al-Imod Hanbaliy (1032/1623–1089/1679) mazkur asar nomini "Kitob asbob an-nuzul" deb keltirgan¹⁰¹. Imom Zahabiy esa "Kitob al-Qisos" va "Kitab asbob an-nuzul"ni boshqa-boshqa asarlar degan fikrni ilgari surgan¹⁰² lekin qat'iy to'xtam bermagan. Asar nomidan ko'rinib turibdiki, muallif sabab bilan qissani bir-biridan ajratgan. Agar ular bir xil ma'noni anglatganida bittasi bilan

⁹⁶ Ahmad ibn Ali ibn Hajar Asqaloni. Al-Ujob fi bayon al-asbob an-nuzul. – Dammom-Saudiya Arabistoni: Dor Ibn al-Javziy, 1417/1997. – J. I. – B. 80.

⁹⁷ Badriddin Muhammad ibn Abdulloh Zarkashiy. Al-Burhon fi ulum al-Qur'on. – Bayrut: Dor al-ma'rifa, 1376/1957. – J. I. – B. 22.

⁹⁸ Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad Zahabiy. Siyaru a'lom an-nubalo. – Bayrut: Muassasa ar-risala, 1402/1982. – J. XII. – B. 420. (I–XXIX j.)

⁹⁹ Shamsiddin Muhammad ibn Ali Dovudiy. Tobaqot al-mufasssiy. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1403/1983. – J. I. – B. 291. (I–II j.)

¹⁰⁰ Ibn Bashkuval / Qosim Xalaf Ansoriy ibn Abdulmalik. As-Silat. – Qohira: Maktabat al-xonijiy, 1374/1955. – B. 311. (661 b.)

¹⁰¹ Abdulhay ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Imod Hanbaliy. Shazarot az-zahab fi axbar man zahab. – Bayrut: Dor Ibn Kasir, 1406/1986. – J. V. – B. 11. (I–X j.)

¹⁰² Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad Zahabiy. Tarix al-islom. – Bayrut: Dor al-kitob al-arabiy, 1410/1990. – J. XXVIII. – B. 61. (I–LII j.)



kifoyalangan bo'lar edi. Shuningdek, asar nomi Qur'onda zikri kelgan ummatlarning qissalari nozil bo'lish sababiga aloqador emasligini anglatadi. Qozi Abdurahmon ommaviy kutubxonlar ko'p, nusxa ko'chiruvchi xattotlar serob bo'lgan davrda yashagan. Ayniqsa, Andalus podshohlari Bag'dod va islom olamining boshqa o'lkalaridagi kitoblarni imkon qadar yig'ishga alohida ahamiyat berishgan. Shu sababli Qozi Abdurahmon Ali ibn Madiniyning asari bilan tanish bo'lgan va o'z asarida undan ko'proq ma'lumotlarni jamlagan deyish mumkin. Qozi Abdurahmonning katta muhaddis bo'lgani¹⁰³ va Qur'on ilmlari bilan shug'ullangani ham mazkur fikrni tasdiqlaydi.

Ismoil ibn Ahmad Naysaburiy Zorir (431/1040-yili v.e.) Qur'on oyatlarining nuzul sababiga aloqador shaxslarga doir "Asmo man nazala fiyhim al-Qur'an" asrini yozgan. Ismoil Naysaburiyning olimlar qiroat, tafsir va hadis bobida imom bo'lganini qayd etishgan¹⁰⁴. Jaloliddin Suyutiy (849/1445–911/1505) o'zining "al-Itqon fi ulum al-Qur'on" asarida "Asmo man nazala fiyhim al-Qur'on"dan manba sifatida foydalanganini aytib, adabiyotlar ro'yxatida keltirgan. Bu esa XV asarning oxirlarida mazkur asar xalq orasida mavjud bo'lganidan dalolatdir.

Sababi nuzulga doir bugungi kungacha yetib kelgan eng mashhur manbalardan biri Abulhasan Ali ibn Ahmad Vohidiyning (468/1076-yili v.e.) "Asbob an-nuzul" asari bo'lib, muallif unda besh yuzdan ortiq rivoyatlarni keltirgan. U mavzuni yoritishda avval sura nomini keyin esa oyatlarning nozil bo'lish sabablarini keltirgan. Muallif kitob muqaddimasida sababi nuzullarni faqat rivoyat qilish va birovdan eshitish orqali gapirish joiz emasligini ta'kidlagan¹⁰⁵. Shuni ham aytish kerakki, mazkur asarda sanadsiz rivoyatlar ko'p uchraydi. Masalan, Moida surasining 57–58-oyatlarining sababi nuzuli haqida keltirilgan rivoyat sanadsiz holda zikr qilingan. Vohidiy Ahmad ibn Ibrohim Sa'labiyning (427/1035-yili v.e.) shogirdlaridan biri hisoblangan¹⁰⁶. U ustozining tafsirga oid "al-Kashf va al-bayon" nomli asaridan ko'p o'rinlarda foydalanganini ko'rish mumkin. Vohidiy ustozining ma'lumotlarini ishonchli deb hisoblagani sababli ularni o'zi alohida tadqiq qilmasdan to'g'ridan-to'g'ri berishni ma'qul ko'rgan.

Abulmuzaffar Muhammad ibn Asad Hanafiy (567/1172) "Asbob an-nuzul va-l-qisos al-Furqoniya" nomli asar ta'lif qilgan¹⁰⁷. Tadqiqotchi Sayyid Muhammad Abdulkarim mazkur asarning Berlin va Chester Bettidagi ikkita nusxasi asosida tadqiqot olib borgan. Biroq bu tadqiqotning nashri hali amalga oshirilmagan.

Salohiddin Safadiyning (764/1363-yili v.e.) ma'lumotiga ko'ra, shia olimlaridan Abu Ja'far Muhammad ibn Ali ibn Shahriyoshubga (588/1192-yili v.e.) oyatlarning nozil bo'lish sabablariga oid "Asbobu nuzul al-Qur'on" nomli asar yozgan¹⁰⁸. "Majma' al-muallifin" asari muallifi Umar Rizo esa mazkur asarning nomini "al-Asbob va-n-nuzul ala mazhabi oli ar-rasul" shaklida keltirgan¹⁰⁹.

Abulfaraj ibn Javziy (597/1200-yili v.e.) "Asbab an-nuzul" nomli kitob tasnif qilgan. Hoji Xalifa (1067/1657-yili v.e.) asarni ayni nom bilan qayd etgan¹¹⁰.

¹⁰³ Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad Zahabiy. Al-Ibar fi xabar man g'abar. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1405/1985. – J. II. – B. 201. (I–IV j.)

¹⁰⁴ Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad Zahabiy. Al-Ibar fi xabar man g'abar. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1405/1985. – J. II. – B. 262.

¹⁰⁵ Abulhasan Ali ibn Ahmad Vohidiy. Asbobu nuzul al-Qur'on. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1411/1991. – B. 10.

¹⁰⁶ Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad Zahabiy. Siyaru a'lom an-nubalo. – Bayrut: Muassasa ar-risalo, 1402/1982. – J. XVIII. – B. 339.

¹⁰⁷ Abdurahmon ibn Amjid Husayn. Asbob an-nuzul. PhD dissertatsiyasi. Islomobod xalqaro islom universiteti. – Islomobod, 1438/2017. – B. 29. (69 b.)

¹⁰⁸ Salohiddin Xalil ibn Oybak Safadiy. Al-Vofiy bi-l-vafayot. – Bayrut: Dor ihyo at-turoso al-arabiy, 1420/2000. – J. IV. – B. 118–119. (I–XXIX j.)

¹⁰⁹ Umar Rizo Kahola. Mu'jam al-muallifin. – Bayrut: Dor ihyo at-turoso al-arabiy, 1376/1957. – J. XII. – B. 16. (I–XV j.)

¹¹⁰ Hoji Xalifa. Kashf an-zunun an asomiy al-kutub va-l-funun. – Bayrut: Dor ihyo at-turoso al-arabiy. Nashr yili ko'rsatilmagan. – J. I. – B. 77. (I–II j.)



Abu Is'hoq Ibrohim ibn Umar Ja'bariy (632/1234-yili v.e.) "Muxtasar asbob an-nuzul" nomli kitobni yozgani ma'lum. Ushbu asarning qo'lyozma nusxalaridan biri Berlin kutubxonasida 3578-raqam ostida saqlanmoqda. Asarning mazkur qo'lyozma nusxasi muallifning hayotlik chog'iga yaqin bir davrda ko'chirilgani bilan ahamiyatlidir. Ja'bariyning asari Vohidiyning kitobiga asoslangan bo'lib, muallif unga sanadlarni qo'shish bilan kifoyalangan¹¹¹. Mazkur ikki asar tahlil qilinganda, Ja'bariyning Vohidiy keltirmagan ba'zi xabarlarini ham qo'shganini ko'rish mumkin. Bunga Baqara surasi 14–16-oyatlarining nozil bo'lish sabablari bilan bog'liq ikkita rivoyatni misol keltirish mumkin.

Ahmad ibn Ali ibn Hajar Asqaloni (773/1371–852/1448) ham sababi nuzul bilan bog'liq "al-Ujob fi bayon al-asbob" nomli asar yozgan. Kitobning mazkur nom bilan atalishi muallif tomonidan asarning muqaddima qismi oxirida ochiq-oydin bayon qilingan¹¹². Hoji Xalifa ushbu asarni ikki xil shaklda qilgan. Birinchisida "Asbob an-nuzul" nomi bilan, ikkinchisida esa "al-Ijob bi-bayon av tibyon al-asbob" shaklida keltirgan¹¹³. Hoji Xalifa keltirgan birinchi nomni Jaloliddin Suyutiy "ad-Dur al-mansur" asarida ayni ko'rinishda qayd etgan¹¹⁴. Ibn Hajar kitobini Vohidiygacha bo'lgan sanad bilan boshlagan. So'ngra sanadsiz kelgan bir necha rivoyatlarga e'tiroz bildirgan. Unga ko'ra, gap sanadni keltirishda emas, balki o'sha sanadning sahifligidadir. U shundan kelib chiqib: "Qanchadan qancha uzluksiz sanadlar borki, ular yolg'onchi, matruk, qo'pol xato qiluvchi roviylar tomonidan rivoyat qilingan. Qanchadan qancha xabarlar borki, sanadsiz zikr qilinsa-da, "bu falonchining asari kuchli sanad bilan rivoyat qilingan" deyiladi"¹¹⁵ deydi. Ibn Hajar sanadi keltirilmagan rivoyatlarning sahih, hasan, zayif va o'ta zayif kabi darajalarini bayon qilgan. Odatda u, avvalo, oyatlar xususida Vohidiyning gapini keltirib, so'ngra uning manbasini qayd qilgan yoki rivoyatning darajasini belgilab olgan. Shuningdek, u bu boradagi boshqa fikr-mulohazalar va rivoyatlarni ham naql qilgan. Muallif mazkur asarini yozishda tafsir, Qur'on ilmlari, hadis va hadis ilmlari, siyrat, tarix va boshqa ilmlarga oid bir yuz yigirma uchta manbadan foydalangan¹¹⁶.

Jaloliddin Suyutiy (849/1445–911/1505) sababi nuzulga oir o'z davrigacha yozilgan asarlardan foydalanib, "Lubob an-nuqul fi asbab an-nuzul" nomli alohida bir asar yozgan. Mazkur asar Vohidiyning kitobiga qaraganda o'zining ixchamligi, ko'p ma'lumotni jamlagani, har bir hadis mashhur to'plamlarga nisbat berilgani, sahih, qabul qilinadigan va qilinmaydiganlari saralangani, sababi nuzulga taalluqli bo'lmagan rivoyatlar chiqarib tashlangani bilan ajralib turadi. Suyutiyning mazkur asari "Asbob an-nuzul" nomi bilan Misrda 1873-yili alohida kitob holida nashr etilgan. "Lubob an-nuqul fi asbab an-nuzul" nomi bilan esa "Tafsir al-Jalolayn" asarining hoshiyasida 1897 va 1909-yillari Misrda hamda 1910-yili Qozon shahrida nashr qilingan. Shuningdek, asar 1894 va 1900-yillari Karachida Qur'oni karimning hoshiyasida nashr qilingan.

Atiyyalloh ibn Atiyya Burhoni Ajhuriy (1190/1776) "Irshod ar-Rahmon li-asbob an-nuzul va-n-nasx al-mutashobeh va tajvid al-Qur'on" nomi ostida sababi nuzulga doir asar yozgan. Muallif mazkur kitobda Vohidiy, Ja'bariy va Suyutiyning asarlari xulosasini bir

¹¹¹ Jaloliddin Suyutiy. Al-Itqon fi ulum al-Qur'on. – Bayrut: Muassasat ar-risala, 1429/2008. – B. 77.

¹¹² Ahmad ibn Ali Ibn Hajar Asqaloni. Al-Ujob fi bayon al-asbob an-nuzul. – Dammom-Saudiya Arabistoni: Dor Ibn al-Javziy, 1417/1997. – J. I. – B. 63.

¹¹³ Hoji Xalifa. Kashf an-zunun an asomiy al-kutub va-l-funun. – Bayrut: Dor ihyo at-turoso al-arabiyy. Nashr yili ko'rsatilmagan. – J. I. – B. 76, 120.

¹¹⁴ Jaloliddin Abdurahmon ibn Abu Bakr Suyutiy. Ad-Dur al-mansur fi tafsir al-ma'sur. – Bayrut: Dor al-fikr, 1432/2011. – J. VIII. – B. 699. (I–VIII j.)

¹¹⁵ Ahmad ibn Ali Ibn Hajar Asqaloni. Al-Ujob fi bayon al-asbob an-nuzul. – Dammom-Saudiya Arabistoni: Dor Ibn al-Javziy, 1417/1997. – J. I. – B. 200.

¹¹⁶ Ahmad ibn Ali Ibn Hajar Asqaloni. Al-Ujob fi bayon al-asbob an-nuzul. – Dammom-Saudiya Arabistoni: Dor Ibn al-Javziy, 1417/1997. – J. I. – B. 141.

joyda jamlashga harakat qilgan. Qisqartirish maqsadida sanadlarni va takrorlarni keltirmagan. Har bir suraning nozil bo'lish sababi haqida alohida so'z yuritib, izidan mansux (hukmi bekor qilingan) oyatlarga to'xtalgan. Shuningdek, Ibn Atiyya mutashobeh oyatlarga ham to'xtalib, asarni suralarning fazilati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tugatgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, sababi nuzulga bag'ishlab yozilgan asarlar davriy jihatdan ancha oldin ta'lif etilgan. Lekin ularning aksar qismi bugungi kungacha yetib kelmagan. Rivojlangan o'rta asrlarda yozilgan asarlar esa o'zining qadr-qimmatini haligacha saqlab kelmoqda.